

## TIL VA JAMIYAT: O'ZBEKİSTONDA YOSHLAR TILIDA KUZATİLAYOTGAN O'ZGARİSHLAR

*Jo'rayeva Marjona Baxtiyor qizi, Termiz davlat pedagogika  
instituti Tillar fakulteti 3-kurs talabasi*

## LANGUAGE AND SOCIETY: LINGUISTIC CHANGES OBSERVED IN THE SPEECH OF YOUTH IN UZBEKISTAN

*Jurayeva Marjona Baxtiyor qizi, 3rd-year student, Faculty of  
Languages, Termiz State Pedagogical Institute*

## ЯЗЫК И ОБЩЕСТВО: ЯЗЫКОВЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ В РЕЧИ МОЛОДЕЖИ УЗБЕКИСТАНА

*Жураева Маржона Бахтиёр кызы, студентка 3-курса  
факультета языков Термезского государственного  
педагогического института*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston yoshlaringning kundalik muloqotida kuzatilayotgan o'zgarishlar sotsiolingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Ijtimoiy tarmoqlar, global madaniyat va texnologiyalarning rivojlanishi ta'sirida shakllanayotgan yangi nutq birliliklari, aralash kodli gaplar tahlil qilinadi. Tadqiqot kuzatish natijalariga asoslangan.

**Kalit so'zlar:** sotsiolingvistika, til o'zgarishi, yoshlar nutqi, aralash kod, leksik yangiliklar, lingvistik o'zgarishlar, fonetik va morfologik o'zgarishlar, sintaktik o'zgarishlar, Code Switching, Code mixing.

**Abstract:** This article analyzes the changes observed in the daily communication of Uzbek youth from a sociolinguistic perspective. It examines new speech units and code-mixed utterances shaped under the influence of social media, global culture, and technological development. The research is based on observational data.

**Keywords:** Sociolinguistics, language change, youth speech, code mixing, lexical innovations, linguistic changes, phonetic and morphological changes, syntactic changes, code switching.

**Аннотация:** В данной статье с социолингвистической точки зрения рассматриваются изменения, наблюдаемые в повседневном общении узбекской молодежи. Анализируются новые речевые единицы и предложения со смешанным кодом, формирующиеся под влиянием социальных сетей, глобальной культуры и развития технологий. Исследование основано на результатах наблюдений.

**Ключевые слова:** социолингвистика, языковые изменения, речь молодежи, кодмиксинг, лексические новшества, лингвистические изменения, фонетические и морфологические изменения, синтаксические изменения, код-свитчинг.

**KIRISH.** Sotsiolingvistika tilshunoslikning jamiyat va inson munosabatlarni o'rganuvchi tarmog'i hisoblanadi. Bugungi globallashuv davrida til jamiyatdagi har bir qatlama, ayniqsa, yoshlar orasida doimiy o'zgarishga uchramoqda. Sotsiolingvistika fani doirasida yoshlar nutqi tahlili muhim ahamiyatga ega, chunki bu ijtimoiy guruh o'zgaruvchan til birliklarini faol ishlab chiqaruvchi va targ'ib qiluvchi jamoa hisoblanadi. O'zbekiston

yoshlari tilida so'nggi yillarda ingliz, rus va shu kabi boshqa chet tillaridan kirib kelgan so'zlar, qisqartmalar, internet-madaniyatga oid terminlar va kod-almashish (code-switching) hodisalari ko'paymoqda. Ushbu maqola aynan shu o'zgarishlar mohiyatini ochib beradi. Til va jamiyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikda yoshlar eng faol guruh bo'lib, ular orasida til o'zgarishlari ko'proq va tez-tez sodir bo'ladi. Yoshlarning tilga



e-mail:

*marj0na.baxtiyorovna0203*

*@gmail.com*

*tel: +99850 501 81 88*



bo‘lgan munosabatini ularning ijtimoiy holati, madaniy qadriyatlari, zamonaviy texnologiyalari bilan o‘zaro bog‘liq deyishimiz mumkin. Yoshlar bugungi kunda ijtimoiy jihatdan o‘ziga xos tarzda nutqida yangi so‘zlar va iboralarni yaratish, norasmiy so‘z va iboralarni faol qo‘llash, shuningdek, modaga bog‘liq ravishda tezda yangi til birliklaridan foydalanishga moyilligi bilan ajralib turadi.

**ASOSIY QISM.** Nutq jarayonida bir qancha lingvistik o‘zgarishlar namoyon bo‘ladi. Masalan, leksik o‘zgarishlarga misol qilib, “like qilmoq”, “zapis bo‘lmoq”, “deadline yetdi”, “mentalitet yo‘q” va hokazo... Fonetik va morfologik o‘zgarishlar, bunda so‘zlarning qisqartirilgan shaklda ishlatilishiga urg‘u beriladi: (boraylikmi?) “borelikmi?”, (xo‘p) “xob”, (ketyapman) “ketyapmanu”, (qilmayapman) “qimayapman” kabi.

Sintaktik o‘zgarishlar bunda asosan yoshlar erkinlikka, ya’ni an’anaviy qoidalarning buzilishiga yo‘l qo‘yadi: “Hali ishlashim kerak” gapi yoshlar nutqida “Hali ish bor” tarzida yoki “Menimcha, bu yaxshi fikr” – “Yaxshi gap bu”; “Menimcha, bu noto‘g‘ri” – “Menga bu yoqmadi” tarzida ishlatiladi.

“Nutqiy muloqot chog‘ida so‘zlovchining kommunikatsiya sharoitidan kelib chiqqan holda, bir tildan (yoki til variantlaridan, dialektdan, uslubdan) boshqa bir til ko‘rinishiga o‘tishi kodlar aralashuvi, ya’ni bir kod tasarrufidan ikkinchi kod tasarrufiga o‘tish deyiladi”<sup>1</sup>. “Kod-almashish — bu ikki yoki undan ortiq til tizimlari o‘rtasidagi ijtimoiy ko‘prikdir”, — deydi tilshunos John Gumperz. U bu hodisani ijtimoiy vaziyatga moslashish vositasi deb biladi<sup>2</sup>. Ayniqsa, ko‘p tilli muhitda yashovchi yoshlar uchun bu hodisa tabiiy holga aylangan. Code Switching (Kod o‘zgartirish) — bu bir tildan boshqasiga butunlay o‘tish. Masalan, bir gapning boshi o‘zbekcha, lekin davomi inglizcha bo‘lishi mumkin. Masalan, kod o‘zgartirish jarayoni yoshlar nutqida:

“Bugun darsga kech qoldim, because the bus was late”.

“I think bu topshiriqni boshqa kimgadir berish kerak”.

Yuqoridagi gaplarda o‘zbekcha gapirib so‘ng ingliz tilida gapni davom ettirilgani yoki inglizcha ibora bilan gap boshlanib o‘zbekcha tugaganligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin.

“Darsda qatnashdim, но ничего нового не было”.

“Bu vazifa juda oson edi, но я забыл сделать”.

Ushbu gaplar esa o‘zbekcha va ruscha so‘zlarning o‘zgarganiga misol bo‘la oladi.

Code Mixing (Kod aralashtirish):

Bu — bir til ichida boshqa til so‘zlarini aralashtirib ishlatish. Ya’ni gap grammatik jihatdan bir tilga tegishli, lekin unda boshqa til so‘zları mavjud. Masalan:

“Bugun Zoomda meeting bor”.

“Ittimos, bu fileni upload qilib yuboring”.

“U Instagramda reelslar joylaydi, juda creative”.

E’tibor qaratishimiz kerak bo‘lgan muhim jihatlardan biri bu — Code switching — gap davomida butunlay til o‘zgartiradi. Code mixing — bir tilda gapirib turib, boshqa til so‘zlarini aralashtirib ishlatadi. Yoshlar orasida bu hodisalarning sabablari, ko‘p tilli muhitda yashash, ayniqsa chet elda o‘qiydigan yoki ishlaydigan yoshlarda nutqida o‘zgarishlar bo‘lishi tabiiy holat. Yoki Internet, ijtimoiy tarmoqlar, memlarda ko‘pincha inglizcha atamalar ishlatiladi va bu o‘z-o‘zidan nutqida inglizcha terminlarning ko‘payishiga asos bo‘la oladi. Trendga ergashish, “cool” ko‘rinish istagi ularda yuqori bo‘ladi. O‘qish va ishga oid terminlarning asosan ingliz tilida bo‘lishi, yangi so‘zlar sifatida tilimizda ishlatilayotgan so‘zlarning ko‘pi bu jarayonga ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbek tilshunosi S. Sultonov esa shunday yozadi: “So‘z boyligidagi zamonaviy o‘zgarishlar ko‘proq yoshlar leksikonida namoyon bo‘ladi. Bu esa tilning ijtimoiy guruhga qarab shakllanishini ko‘rsatadi”<sup>3</sup>.

Yoshlar tilidagi o‘zgarishlarning ijtimoiy va madaniy sabablariga asos qilib, global

<sup>1</sup> Sh.Usanova,N.Bekmuxamedova, G.Iskandarova. Sotsiolingvistika. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, Universitet, 2014. 37-bet.

<sup>2</sup> Gumperz, J. J. (1982). Discourse Strategies. Cambridge University Press.

<sup>3</sup> Sultonov, S. (2020). Zamonaviy O‘zbek tili leksikasida yangilanish jarayonlari. Filologiya masalalari.

madaniyatning ta'siri, chet tillarini o'rganishga bo'lgan ehtiyojning tobora ortib borishi, zamonaviy texnologiyalar va tezkor aloqa vositalari, shaxsiy brend va imidj yaratish istagi, taqlid qilish va trendda bo'lish istagini ko'rsatishimiz mumkin. Globalizatsiya jarayoni natijasida ingliz tili va g'arb madaniyati yoshlar orasida keng tarqalmoqda. Bu, o'z navbatida, ularning nutqida kod-mixing va kod-switching holatlarining ko'payishiga olib keladi (Crystal, 2003)<sup>4</sup>.

Yoshlar orasida ingliz tilini o'rganish, ayniqsa IT, biznes va xalqaro aloqalar sohasida juda foydali hisoblanadi. Ingliz tilini bilmay turib bugungi kunda bu sohalarda faoliyat olib borish juda mushkul, shu sababli ham tilimizda ingliz tilining ta'siri ortib bormoqda.

Ijtimoiy tarmoqlar orqali va u yerdagи o'zaro xabar almashish natijasida so'zlarni qisqartirib va nutq jarayonida turli xil fonetik o'zgarishlar ham kuzatilmoqda. Yoshlar orasida ommabop madaniyat vakillariga, ijtimoiy tarmoqlardagi trendlarga taqlid qilish til o'zgarishlarini tezlashtiradi.

**XULOSA.** Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda yoshlar tilida kuzatilayotgan lингistik o'zgarishlar zamon bilan bog'liq zaruriy va tabiiy jarayondir. O'zbekistondagi yoshlar nutqidagi o'zgarishlar — bu **ijtimoiy va madaniy jarayonlarning tabiiy natijasi** bo'lib, til hamjamiyatining doimiy rivojlanishi va moslashuvchanligini ko'rsatadi. Ushbu jarayonlarni o'rganish va tahlil qilish, yoshlar tilining kelajakdagi holatini anglash uchun muhimdir. Bu o'zgarishlar yoshlarning o'zaro muloqotini yengillashtiradi, shuningdek, ular orasida ijtimoiy va guruhiy birlikni mustahkamlaydi. Til orqali o'zini ifoda etish va o'ziga xos brend yaratish istagi yoshlarni bunday o'zgarishlarga undaydi.

Biroq, til me'yorlaridan chetga chiqish, ayniqsa rasmiy va ilmiy nutqda normaning buzilishi

tilning tushunarligi va aniqligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu esa tilning barqarorligini saqlash va rivojlantirish uchun muhim muammolardan biridir. Shu bois, tilshunoslar va jamiyat a'zolari til o'zgarishlarini atroficha o'rganib, ularning ijtimoiy va madaniy kontekstini hisobga olib, me'yoriy yondashuvlarni ishlab chiqish zarur.

Shunday qilib, yoshlar nutqidagi o'zgarishlar faqat til buzilishi sifatida emas, balki tilning rivojlanish jarayonining tabiiy ko'rinishi sifatida qabul qilinishi lozim. Ular yoshlarning dunyoqarashi, ijtimoiy mavqeyi va madaniy yangilanishlarini aks ettiradi. Bu jarayonlarni to'g'ri yo'naltirish va boshqarish orqali O'zbek tilining zamonaviy sharoitlarga moslashuvi va rivojlanishini ta'minlash mumkin.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Fishman, J.A.(1972). Sociolinguistics: A brief introduction. Rowley: Newbury House.
2. Holmes, J. (2013). An Introduction to Sociolinguistics. Routledge.
3. Sultonov,S. (2020). Zamonaviy O'zbek tili leksikasida yangilanish jarayonlari. Filologiya masalalari.
4. Xudoyberganova,D. (2021). Yoshlar va til madaniyati. Sotsiologik tahlil jurnali.
5. Usmanova,Sh., Bekmuxammedova,N., Iskandarova, G. (2014). *Sotsiolingvistika*. Toshkent: Toshkent davlat universiteti nashriyoti.
6. Abdurahmonov X., Mahmudov N. So'z estetikasi. - Toshkent: Fan, 1981.
7. D.Elova, G.Safarova, Sotsiolingvistika,Toshkent, 2021.
8. Z.Aliulov. S.Boymirzayeva. Sotsiolingvistika. Samarqand, 2009.



<sup>4</sup> Crystal, D. (2003). *English as a Global Language*. Cambridge University Press.